

SOLNOMASI

HAR CHORAKDA BIR MARTA CHOP ETILADI



2023 -yil – Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili



> Tanzila Norbayeva,
O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisini Senati Raisi

TANZILA NORBAYEVA: YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMIGA OID VAZIFALAR DOIMO DIQQAT – MARKAZIMIZDA

Senat Raisi universitetda talaba-yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdi. Tashrif chog'ida talabalar bilan yuzma-yuz muloqotda bo'ldi. Ochiq muloqot ruhida o'tgan davra suhbatida yoshlar o'zlarini qiziqtirgan ko'plab savollarga javob oldilar.

Tanzila Norbayeva yoshlarga doir davlat siyosati sa-maradorligini ta'minlash, ularni tashvishga solayotgan muammolarni samarali hal qilish maqsadida bundan buyon yoshlar bilan mutlaqo yangicha ish olib borilayotganini e'tirof etdi.

davomi 2-betda ➤

"Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatli ta'lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi"

Shavkat Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



Rektor minbari !!!

> Gafurjon Zaxidov,
Qo'qon universiteti direktori,
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR – TA'LIM TASHKILOTLARI RIVOJI ASOSI

Bugungi global davrda oliv ta'lim tizimi tarixiy islohotlarni boshidan kechirib, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib o'zgarish va yan-gilanishlar olib kelmoqda.

XALQARO BOBURSHOH ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



> Bilal Chakiji,
TURKSOY bosh kotibi o'rinnbosari

davomi 4-betda ➤

Qabul kvotalari tez sur'atlarda ortayotgani, kirish imtihonlaridagi yengilliklar, yoshlar uchun imtiyoz va imkoniyatlar kengayGANI, amaliyotga boshqaruvning yangicha tamoyillari joriy etilayotgani, o'qish va o'qitishning zamonaVi uslublari qo'llanayotgani – bularning barchasi oliv ta'lim tizimida tashlanayotgan yangi qadamlar samarasidir.

Shu bilan birga, profes-sor-o'qituvchilarni har to-

Ajdodlarni xotirlamoq ularni qoldirgan madaniy va ma'naviy merosini o'rganmoq, yoshlarni bu bilimlar-dan bahramand etmoq yuksak qadriyat hisoblanadi. Buning natijasi o'laroq, har yili yurtimizda tariximizda o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolar-ni yod olish, ularga bag'ishlab xotira kechalarini tashkil etish an'anaga aylangan. Joriy yilning 13-14-aprel kunlari Qo'qon universitetida o'tka-zilgan "Xalqaro Boburshoh" ko'rgazmasi Bobur ilmiy-adabiy merosini keng tadqiq va tahlil etish orqali yosh-larimizning bilimlari yuksalishiga katta hissa qo'shishiga xizmat qildi.

davomi 4-betda ➤

monlama qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatini munosib rag'batlantirish, xorijiy ham-korlikni kengaytirish baro-barida mamlakatimiz oliv ta'lim tizimining xalqaro imi-jimi yaxshilash borasida ham salmoqli ishlar qilinmoqda. Albatta, bu islohotlar zamiri-da Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan, barcha sa'y-harakatlarimiz inson uchun, inson qadri uchun, degan ezgu g'oya mujassam.

» Davra suhbatida Senatning tegishli qo'mitalari Yoshlar ittifoqi bilan birga mamlakat taqdiriga befarq bo'lmagan yoshlar vakillari bilan hamkorlik qilayotgani aytib o'tildi. Qarorlar va eng muhim yangi tahrirlangan Konstitutsiya xotin-qizlar, yoshlar muammolari yechimiga oid yangiliklar bilan boyitilgani, kelgusida ularni hayotga tatbiq etish yo'lidagi keng ko'lamli vazifalarni samarali amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtiroki zarurligi ta'kidlandi.

Muloqot chog'ida Senat Raisi talaba-yoshlarni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan normalar mazmun-mohiyati bilan atroflichan tanishtirdi. Yangilangan Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari kafolatlari kuchaytirilgani, O'zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekanligi, majburiy mehnat taqiqlanishining kafolatlari belgilanganligi, yangi normalarga muvofiq ta'lim olish huquqi va o'qituvchilarning haq-huquqlari Konstitutsiya himoyasiga olinganligini alohida e'tirof etdi.

Talabalarimiz tomonidan nufuzli mehmonga tashrif va samimiyo muloqot uchun minnatdorchilik bildirildi hamda qator takliflar ilgari surildi. Xususan,

Qo'qon yoshlari ezgu maqsad atrofida birlashdilar! Yangilangan Konstitutsiyada yoshlar huquqlariga oid eng muhim 5 ta imkoniyat belgilandi.

* Davlat yoshlarning

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV MAJLISI SENATI RAISI TANZILA NORBAYEVANING QO'QON UNIVERSITETIGA TASHRIFI



KU Kokand University

O'zbekiston Respublikasi Oly Majlis Senati raisi Tanzila Norbayeva Qo'qon universitetiga tashrif buyurdi
www.kokanduni.uz +998 (73) 545-55-55 info@kokanduni.uz @kokanduniiversity



hukumat va yoshlar o'rtaida o'ziga xos ko'priq vazifasini o'tayotgan Oliy Majlis-Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentiga universitetlardan ham vakil saylash taklifi Senat Raisi Tanzila Norbayeva.

ixtisoslashgan, yoshlarni qiziqqtirgan barcha yo'nallishlarga ega universitetlarning bo'lishi bu juda katta imkoniyatdir, – dedi Senat Raisi Tanzila Norbayeva.

Davra suhbatida yekunida barcha talaba-yoshlar

mamlakatimizni rivojantirishning uzoq muddatli strategiyasi, xalqimiz farovon hayotining kelajakdagi mustahkam huquqiy asosi hisoblangan yangilangan Konstitutsiyaga xayrixohlik bildirdilar.

— *H u d u d l a r d a Qo'qon universitetidek yan-gicha, zamonaviy universitetlar bo'lishi Muhtaram Prezidentimizning, bar-chamizning orzu va maq-sadimiz edi. Yaqin yillarda yurtimizda 67 tagina universitet mavjud bo'lib, yoshlarning olyi ta'lim olish xohishi katta, lekin oliygochlarga qamrov kam edi. Endilikda joylarda shunday zamonaviy ta'lim berishga*



shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi;

* davlat yoshlarning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini

rag'batlantiradi; * davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi;

* davlat yoshlarning ta'lim olish, sog'lig'inini saqlash, uy-joy, ishga joylashish, bandlik va dam olish borasidagi huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi;

* davlat va jamiyat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakat hamda

xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Bu muhim yangilanishlarga befarq bo'lmagan holda Qo'qon universiteti talaba-yoshlari, rahbariyat va ustozlar ham referendum arafasida Qo'qon shahrida o'tkazilgan "Konstitutsiya – meniki, seniki, bizniki! Konstitutsiya o'zimizniki" shiori ostidagi targ'ibot tadbirlarida faol qatnashdilar.





Navroz party

QO'QON UNIVERSITETIDA - YORQIN LAHZALAR



Oliyoghimizda xalqimizning go'zal an'anaviy milliy bayrami – Navro'zi olam katta taraddud bilan nishonlandi. Kun va tun tenglasha-digan qutlug‘ kunlarda, ta'bir joiz bo'lsa universitetimiz madaniyatlar, qadriyatlar birlashgan va mujassam topgan keng maydonga aylandi.

Bayram tadbirida Qo'qon shahar hokimi Ma'rufjon Usmonov va Qo'qon universiteti rektori G'afurjon Zaxidovlar ishtirokchilarga

tabrik yo'lladilar, ma'naviy hayotimizning ziynati bo'lgan Navro'z ayyomi bilan qutladilar.

Anjumanga tashrif buyurgan shahar nuroniylari Navro'zi olam yurtimizga qut-baraka olib kelishini tilab, duoga qo'l ochdilar.

Talabalar va ustozlar bayramga ijodkorona va sidqidildan yondashib, milliyligimizni jozibali talqin etdilar.



XALQIMIZNING TURMUSH TARZI, URF-ODATLARI – KO'RGAZMALARDA

“Navro'z party”da bayram dasturxonlari xorazmcha tuxumbarak, ko'kbaraklar, qoraqlpoqcha beshbarmoq, chak-chak-u bo'g'irsoqlar bilan bezaldi. Yurtimizning turli hududlaridan kelib ta'lim olayotgan talaba-qizlarimiz bir-birlari bilan udumlar, qadriyatlar almashdilar. Bayramda Navro'zning yangi qirralari, yangi udumlari kashf

etildi.

Bir tomonda Markaziy Osiyo marvaridi – Farg'ona-ning bu bayram bilan bog'liq udumlari targ'ib qilinib, bayram dasturxoni farg'ona-chaga milliy-bahoriy taomlar bilan bezatildi. Bug'doy undirildi. Qizlarimizga kiygan marg'iloncha atlas-u adreslari alohida zeb bag'ishladi. Bir yonda esa Amir Temur mehr

bilan qadrlagan, obod qilgan, dunyoning sayqaliga aylantirgan ko'hna kent – Samarqand qo'rg'oni tiklandi. Bayramga kelgan mehmonlar xalqimizga xos mehmonnavozlik an'analarini asosida kutib olindi.

Ko'rgazmalarda shuningdek, Namangan diyorining urf-odatlari o'z aksini topdi. “Kelin salom” marosimi orqa-li milliyligimiz jozibali tarzda talqin etildi.

Andijonsoy yoqasida joylashgan, Bobur vatani bo'lgan ko'rkan Andijonning o'ziga xos urf-odatlari va qadriyatlar keng namoyish etildi. Ayniqsa, ijodkor-o'qituvchi va talaba-shogirdlari tomonidan tikilgan qoraqalpoq qora uyi – o'tov barchanining e'tiborini tortdi.

Talabalarning sahna ko'rinishlari orqali xalqimizning milliy qahramonlarini gavdalantirdilar. Navro'z bayrami va xalqimiz tarixiga keng nazar solindi. Mardlar o'yinlari – chavandozlik, kurash va tosh ko'tarish musobaqlari o'tkazildi. Milliy kurash, tosh ko'tarish musobaqlarida pol-

von-talabalarimiz kashf etildi.

Bayram tadbiriga taniqli xonandalar – “Nihol” va “E'tirof” mukofotlari sovrindori Malika Egamberdiyeva hamda el suygan san'atkori Ilhom Ibrohimovlar jonli ijrolari bilan fayz bag'ishladilar. Navro'z bayrami milliy o'yinlar, bahodirlar bellashuvlari bilan qizg'in kechdi.

Barcha jamoalar “Eng yaxshi sahna ko'rinishi ijrochisi”, “Navro'z qadriyatlarining eng yaxshi talqinchisi” kabi qator nominatsiyalar bo'yicha g'olib bo'lib, pul mukofotlari, sayohatga yo'llanmalar bilan taqdirlandilar.



An'anaviy “Osh party”, “Muzqaymoq party” uyushitirildi, “Sumalak sayli” o'tkazildi. Navro'z barchanning qalbiga bahoriy iliqlik bag'ishlab, yorqin lahzalari bilan yodda qoldi.

"XALQARO BOBURSHOH" KONFERENSIYASI: CHUQUR T AHLIL, TADQIQ, MUNOZARA VA XULOSALARGA BOY O'TDI

Joriy yilning 13-14-aprel kunlari Qo'qon universitetida "Xalqaro Boburshoh" ilmiy-amaliy konferensiyasi yuqori saviyada o'tkazildi.

Konferensiyada Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti TURKSOY bosh kotibi o'rinosbasi Bilal Chakiji, Farg'ona viloyati hokimi o'rinosbasi Xurshidjon Ahmedov, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Shuhrat Sirojiddinov, Boburnomidagi xalqaro jamoat fondi rahbari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Zokirjon Mashrabov, Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinosbasi Botirjon Ergashev, Turon Fanlar akademiyasi prezidenti va akademigi, tarix fanlari doktori Haydarbek Bobobekov, Qo'qon shahar

hokimi Ma'rufjon Usmonovlar ishtirok etdilar.

Xalqaro konferensiyada, shuningdek, Boku davlat universiteti, Al-Farobi nomidagi Qozoq milliy universiteti, O'sh davlat universiteti va boshqa qator nufuzli olygohlar professor-olimlari o'zlarining mavzuga ilmiytahliliy ma'ruzalar bilan qatnashdilar.

Zahiriddin Muhammad Boburning 540 yilligiga bag'ishlangan konferensiya yalpi majlisini Qo'qon universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor G'afurjon Zaxidov kirish so'zi bilan ochdi.

Anjumanda turkiy xalqlar kelajagi bevosita hamjihatlikda o'tkazilayotgan shu kabi anjumanlar, tarixni tadqiq va targ'ib qilish, ilm-fan olami-

da hammaslaklikda faoliyat olib borishga qaratilgan sa'y-harakatlarga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi e'tirof etildi. Barchaga konferensiya ishida muvaffaqiyat tilandi.

Konferensiya ochilishida TURKSOY bosh kotibi o'rinosbasi Bilal Chakiji so'zga chiqib, ushbu nufuzli anjuman Boburning jahon xalqlari madaniyati xazinasidan munosib o'rin olgan ilmiy-adabiy merosini yanada keng tadqiq va tahlil etish, turkiy dunyo olimlari hamda Boburshunoslarning qimmatli ma'lumotlari ajdodlarimiz tarixini yanada keng tarannum etish va yoshrimizning bilimlari yuksalishiga katta hissa qo'shishini ta'kidlab o'tdi.

Bilal Chakiji Bosh kotib Sultan Rayevning salom va



tabrigi, minnatdorchilagini konferensiya ishtirokchilariga yetkazdi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymo, buyuk shoir, qomusiy olim Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash borasidagi tashabbuslari asosida olib borilayotgan ishlarni kuzatib, faxrlanmoqdamiz. Bobur hayoti va ijodiga doir noyob qo'lyozmalari va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularni O'zbekistonga olib kelish hamda tadqiq qilish borasidagi ishlar tafsinga loyiq. Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston buyuk ajdodlar merosiga sohib chiqib, turk dunyosiga namuna bo'lmoxda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Fursatdan foydalanim, Farg'ona va Qo'qon shahar hokimligi, "Xalqaro Boburshoh" konferensiyasini oliy darajada tashkillashga katta hissa qo'shgan Qo'qon universiteti rahbariyati hamda bebafo ma'ruzalar bilan ishtirok etayotgan barcha olimlarga o'z minnatdorchiligidimizi bildiramiz.



Bilal Chakiji,
TURKSOY bosh kotibi o'rinosbasi

— Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Samarcand shahrida o'tkazilan Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining sammitida Yurtboshimizning tinchlik va do'stlik ramzi, fan va ma'rifat markazi bo'lgan Samarcand shahri "Turkiy sivilizatsiya poytaxti", 2023-yilni esa "Turkiy sivilizatsiyaning yuksalish yili", deb e'lon qilish taklifi qizg'in qo'llab-quvvatlandi. "Men ishonaman, Turkiy dunyonи buyuk kelajak kutmoqda", dedi Davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY va Farg'ona viloyati hokimligi o'rtaida o'zaro hamkorlik memorandumi imzolandi. Bundan ko'zlangan maqsad, turizmni yanada rivojlantirish, o'zbek-turk madaniy aloqalarini kengaytirish, xalqaro konferensiya va tadbirlar o'tkazishda yanada ilg'or bo'lishdir. TURKSOY bilan hamkorlikda Qo'qon universitetida o'tkazilayotgan "Xalqaro Boburshoh" konferensiysi ham hamkorligimiz samarasidir. Joriy yilda mana shunday bir necha yirik tadbirlarni o'tkazishni rejalashtirmoqdamiz. Bugungi konferensiya buyuk bobokalonimizning ibrat bo'larli qirralarini keng o'rganishga xizmat qiladi.

Konferensiya doirasidagi ma'ruzalarda Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzoning Andijon, Samarcand, Xo'jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agracha bo'lgan qamrovga ega 50 yillik tarixiy voqeliklar haqqoniy ifodasini topgan "Boburnoma" asari, u asos

solgan, uch yarim asrga yaqin hukm surgan boburiylar sulolasini tahliliy ko'rib chiqildi. XV asr oxiri — XVI asr boshlariда Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'chmas iz qoldirgan alloma mutafakkir, mohir qalam va qilich sohibining hayoti va ijodiga keng nazar solindi.



Kurshidjon AHMEDOV,
Farg'ona viloyati hokimi o'rinosbasi



"ULUSLARARASI BABURŞAH"

13.04.2023
Kokand city

Qo'qon universiteti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor **G'afurjon Zaxidov** Turkiy xalqlarning ma'naviy



yaqinligi va qardoshlik birligini mustahkamlash, turkiy madaniyatni dunyoga tanitish va uning an'analarini kelajak avlodlarga yetkazish maqsadlarida faoliyat olib borayotgan TURKSOY tashkil topganligining 30 yilligiga bag'ishlangan oliy medal bilan birinchilardan bo'lib taqdirlandi. Umumiy til, madaniyat va ma'naviy qadriyatlar-

TURKSOY VA QO'QON UNIVERSITETI O'Rtasida HAMKORLIK MEMORANDUMI IMZOLANDI



Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) bosh kotibi o'rinosi Bilol Chakiji va Qo'qon universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori G'afurjon Zaxidovlar ikki muassasa o'rtaсидagi hamkorlikning huquqiy asosi bo'ladiغان memorandumga imzo chekdiralar.

Muzokara doirasida tomonlar turkiy dunyo madaniyatini va merosini asrab-avaylash maqsadida ushbu sohada qo'shma ilmiy-texnik tadqiqotlar olib borish, seminarlar, konferensiylar, simpoziumlar, kongresslar, soha tadqiqotlari, ko'rgazmalar, tanlovlari, festivallar, konsertlar va turnirlar tashkil etishga kelishib oldilar.

DILBAR SHAXS XOTIRLANDI

"Xalqaro Boburshoh" konferensiysi doirasida o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy anjuman nozikta'b shoir, turkiy olamning madaniy, lisoniy va tarixiy ravnqaiga hissa qo'shgan dilbar siymo - Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiga ehtirom namunasi bo'ldi.

Qardosh mehmonlar uchun musiqiy kompozitsion dastur taqdim etildi. "Bek" doirachilar ansambl, "Yangi O'zbekiston yoshlari" ijodkorlar guruhi hamda O'zbekiston san'at va madaniyat instituti Farg'ona mintaqaviy filialining aktyor-talabalar jamoasi tomonidan kuy-qo'shiqlar, teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari namoyish qilindi.

Mehmonlar Boburning zahmatli, sermashaqqat, shu

ga asoslangan bu hamkorlik shunday xalqaro mukofotga



bilan birga, ibratli hayoti va ijodini yoshlar talqinida tomosha qilib, yurtimiz san'atidan bahra oldilar.

Turkiy davlatlardan tashrif buyurgan mehmonlar da, ayniqsa, madaniy dastur, Qo'qon shahrining tarixiy obidalariga uyuştilrilgan sayohat katta taassurot qoldirdi.

Konferensiyaning yakuniyig'ilishida barcha ishtirokchilarga minnatdorchilik bildirildi va sertifikatlar topshirildi.

Turkiy davlatlar professor-olimlari o'zлari keltirgan nodir manbalar, kitoblar ni Qo'qon universiteti kutubxonasi uchun rektorimiz G'afurjon Zaxidovga topshirdilar. Talaba-yoshlarning buyuk ajodimiz haqidagi ma'lumotlarni qiyosiy o'rganish imkoniyatlari yanada kengaydi.

loyiq ekani e'tirof etildi.

“QO‘QON OLIMPIADASI” – YOSH BILIMDONLAR UCHUN SINOV MAYDONI

Qo‘qon universiteti, Qo‘qon shahar Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi bo‘limi, Qo‘qon shahar hokimligi hamkorligida o‘quvchi-yoshlarning ilm olishga intilishlarini rag‘batlantirish, matematika fanidan bilimli va iqtidorli yoshlarni kashf qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Qo‘qon olimpiadasi” o‘tkazildi.

Olimpiada Davlatimiz rahbarining 2022-yil 22-dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga qilgan murojaatnomasi, “Insoniga e’tibor va sifatli ta’lim yili” hamda Prezidentimizning “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil etildi. “Qo‘qon olim-



piadasi” Qo‘qon shahridagi umumta’lim maktablari, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar hamda nodavlat ta’lim muassasalarining 7-8, 9-10-11-sinf o‘quvchilar ishtirokida yuqori saviyada o‘tkazildi.

Joriy yilning 1-aprel kuni Qo‘qon shahridagi 45 ta umumta’lim va ixtisoslashgan davlat umumta’lim maktablarida o‘tkazilgan olimpiadaning birinchi bosqichida 1000 nafarga yaqin talabgor-o‘quvchilar katta qiziqish

bilan ishtirok etishdi. 8-aprel kuni Qo‘qon universitetida “Qo‘qon olimpiadasi”ning final bosqichi o‘tkazildi. Olimpiadaning ochilish tadbirida barcha bilimdonlarga omad tilandi. Ishtirokchilarga universitet va olimpiada logotipi tushirilgan zarur vositalar tarqatildi.

Olimpiadada maktabdar-dagi aniq fanlar bo‘yicha eng qobiliyatli o‘quvchilar bilimlari sinovdan o‘tkazildi. Ishtirokchilarga universitet va xalq ta’limi tizimidan birik-

tirilgan mas’ullar tomonidan test varaqalari tarqatildi.

Jarayonning shaffof va adolatli o‘tkazilishi olimpiada mas’ullari tomonidan nazorat qilib borildi. Ishtirokchilar ning ota-onalari va o‘qituvchilariga jarayonni kuzatish uchun shart-sharoitlar yaratib berildi. Ishtirokchi-o‘quvchilar maxsus tuzilgan 3 xil darajadagi 25 ta test savoliga javoblar berdilar. Barcha ishtirokchi-nomzodlarga teng sharoit va imkoniyatlar yaratilishi ta’mindan.



ENG IQTIDORLI MATEMATIKLAR NOMI MA’LUM BO’LDI

Hakamlar hay’ati tomonidan “Qo‘qon olimpiadasi” ishtirokchilarining natijalarini baholash jarayonlariga adolatli yondashildi.

Olimpiadaning final bosqichida Qo‘qon shahri maktablarining 45 nafar 7-8-sinf o‘quvchilari ishtirok etdilar. Ular orasida Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Qo‘qon shahar 2-ixtisoslashtirilgan maktabning 8-sinf o‘quvchisi Ayubxon Ahadov, 5-VIDUMIning 8-sinf o‘quvchisi Abdulbosit Karimov, 37-maktabning 7-sinf o‘quvchisi Shohrux Shokorov, 21-maktabning 7-sinf o‘quvchisi Arofat Solijonova, 40-maktabning 7-sinf o‘quvchisi Ayubxon Nurmatov va 2-maktabning 7-sinf o‘quvchisi Mubashirxon Akbarovlar eng

yuqori natijalarga erishib, g‘olib bo‘ldilar.

Shuningdek, yakuniy bosqichda 46 nafar 9-10-11-sinflar o‘quvchilar ishtirok etdilar. Ular orasida 37-umumta’lim maktabining 11-sinf o‘quvchisi Abrorjon Abdug‘affarov, 30-maktab 9-sinf o‘quvchisi Saidfozilxon Sayidaliyev,

1-IDUMning 11-sinf o‘quvchisi Zahro Nosirova, 7-maktabning 10-sinf o‘quvchisi Mufazzal G‘aniyeva, 44-maktabning 11-sinf o‘quvchisi Muhammadjon Valiyev 32-IDUMning 11-sinf o‘quvchisi Robiya Muhammedjanovalar eng yuqori ballar to‘plab, g‘olib bo‘ldilar.

G‘oliblar tashkilot-

chilar tomonidan qimmatba-ho sovg‘alar, Qo‘qon universitetida grantda o‘qish imkonini beruvchi vaucherlar bilantaqdirlandilar. Olimpiadaning barcha ishtirokchilariga Faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari topshirildi.

“Qo‘qon olimpiadasi”ni o‘tkazish asnosida har yili yosh iqtidorli matematiklarni kashf etish nazarda tutilgan. Olimpiada iqtidorli yoshlarni qidirib topish, ularni moddiy rag‘batlantirish orqali motivatsiya berish asosida yosh matematiklarning seleksiyasini amalga oshirish, olyi o‘quv yurtida tahsil olishlariga ko‘maklashish, ularning iqtidorini jamiyat rivoji yo‘lida safarbar etishga xizmat qiladi. Bu amaliyot esa, o‘z o‘rnida ilm-fanimiz taraqqiyotini yanada jadallashtiradi.



OLIMPIADA G'OLIBLARI ISHTIROKIDA UCHRASHUVLAR O'TKAZILDI



Qo‘qon universitetida o‘tkazilgan “Qo‘qon olimpiadasi” ning g’oliblari va ustozlari bilan bevosita maktablarda uchrashuvlar tashkil etildi.

Xususan, Qo‘qon shahar hokimi Ma‘rufjon Usmonov, Qo‘qon universiteti rahbariyati ishtirokida 37-umumta‘lim mакtabida olimpiada g’oliblarining yutuqlari keng targ‘ib qilindi. G’olib o‘quvchilar muhofotlanib, bilim olish yo‘lida gi sa‘y-harakatlarida muvafiqiyatlar tilandi.

Shuningdek, iqtidori li yoshlarni tarbiyalayotgan matematika fani o‘qituvchilari

va mакtab direktoriga tashakkurnoma topshirildi.

Ota-onalar, o‘quvchilar Prezidentimiz va hukumatimiz rahnamoligida yoshlarning ilm olishga intilishlarini rag‘batlantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlar dan cheksiz minnatdor ekanliklarini bildirishdi. Olimpiada tashkilotchi va homiyalariga ham tashakkur izhor etishdi.

Qo‘qon shahar 2-ixtisoslashtirilgan mакtabining olimpiadada yuqori o‘rinlarni qo‘lga kiritigan o‘quvchilari ham tabriklandi va esdalik

sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Uchrashuvda shahar hokimi Ma‘rufjon Usmonov davlatimiz rahbari tomonidan ta‘lim sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan e‘tibor xususida to‘xtalib, shahrimizda o‘tkazilgan olimpiada yosh iqtidor egalarini aniqlash va yuzaga chiqarishga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Bilimli yoshlarni tarbiyalayotgan matematika fani o‘qituvchilari va mакtab direktoriga ham tashakkurnoma topshirildi.

MUHIM TASHRIFLAR



DEPUTATLAR – UNIVERSITETIMIZDA

Oliyohimizga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatosi deputati, Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo‘mitasi raisi o‘rnibosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Durbek Ahmedov, Oliy Majlis Qonunchilik palatosi Fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash masalalari qo‘mitasi a‘zosi Mavluda Ibragimovalar tashrif buyurdilar.

Deputatlar referendum oldidan talaba-yoshlarni bilan ochiq muloqot o‘tkazib, inson manfaatlari va qadr-qimmati ustuvorlik kasb etgan Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini keng sharhladilar.

Professor Durbek Ahmedov yangi Konstitutsiya orqali suveren, demokratik, shu

bilan birga, ijtimoiy huquqiy davlat sari yo‘limiz belgilab olinishi va bu tamoyillar kelgusi taraqqiyotimizda ustuvor ahamiyat kasb etishini ta‘kidladi.

Uchrashuvda Konstitutsiyada belgilanayotgan yangi iqtisodiy tamoyillar xususida batafsil so‘z borib, bu o‘zgarishlar davlat kelajagi uchun muhim poydevor hisoblanishi e’tirof etildi.

Muloqot davomida talabalarga yoshlarni huquqlariga oid yangiliklar yetkazildi. Shuningdek, ta‘lim olish huquqi, o‘qituvchining mehnati, sha‘ni, qadr-qimmati, nogironligi bo‘lgan shaxslar himoyasi borasidagi yangiliklarga to‘xtaldilar. Muloqotda universitet talabalari deputatlardan



TSI DELEGATSIYASINING TASHRIFI BO‘LIB O‘TDI

Transport va telekommunikatsiyalar instituti (Latviya Respublikasi) rektori, janob Yuris Kanels va Xalqaro aloqalar bo‘limi mutaxassisini Inese Romanecce xonim universitetimizda talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdilar.

Muzokaralarda talabalarning innovatsion g‘oyalarini amalga oshirish, menejment, IT, robototexnika, logistika yo‘nalishlarida bilimlarni

rivojlantirish, ilm yaratish va tarqatish xususida so‘z bordi. Talabalarning karyeralarini muvaffaqiyatli boshlashlariga ko‘maklashish, akademik va kasbiy mahoratlarini oshirish borasida tajribalar almashildi. Kelgusidagi hamkorlik yo‘nalishlari belgilanib, talaba almashish, double degree – ikki mamlakat diplomni berish borasida anglashuv memorandumi imzolandi.

o‘zlarini qiziqtirgan ko‘plab savollariga javob oldilar. Konstitutsiyada aks etayotgan

tamoyillarga o‘z munosabatlari bildirdilar.




Durbek Ahmedov
Oliy Majlis Qonunchilik palatosi deputati



Mavluda Ibragimova
Oliy Majlis Qonunchilik palatosi deputati

KU VA YOSHLAR ITTIFOQI O'RTASIDA MEMORANDUM IMZOLANDI



KIUF DELEGATSIYA TASHRIF BUYURDI

Qo‘qon universitetiga Farg‘ona shahridagi O‘zbekiston-Koreya Xalqaro universiteti (KIUF)ning Qabul va tashkiliy ishlar bo‘yicha prorektori Lee Yun Sub boshchiligidagi delegatsiya tashrif buyurdi.

KIUF mutasaddilarini universitetimiz kampusidagi imkoniyatlar, istiqboldagi strategik rejalar, akademik faoliyat va qabul tartiblari bilan ta-



nishitirildilar.

Uchrashuvda anglashuv memorandumi tuzish va hamkorlikni kengaytirish, Qo‘qon universiteti tajribasini O‘zbekiston-Koreya Xalqaro universitetida qo‘llash borasi da muzokaralar olib borildi.

XORIJY PROFESSOR-O‘QITUVCHI – UNIVERSITETIMIZDA

U bir semestr davomida Ta’lim kafedrasi professor-o‘qituvchilari bilan hamkorlikda turk-o‘zbek tillari bo‘yicha lingvistik qiyoslov tadbiqotlarini olib bordi.

Shuningdek, turk tili ni chet tili sifatida o‘rgatish bo‘yicha katta tajribaga ega Gulshah Eren tomonidan talabalarimiz uchun “Turk tili” to‘garagi tashkil etildi va qar-dosh til o‘rgatildi.



Turkiyaning nufuzli Ege universiteti professori, fan doktori **Gulshah Eren** Orhun almashinuv dasturi doirasida universitetimizga tashrif buyurdi.

TALABALAR LOYIHALARI UNICEF TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLANDI

Qo‘qon universitetida “ImkonLab” ijtimoiy tadbirkorlik laboratoriyasi loyihalari taqdimoti o‘tkazildi.

Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston yoshlari ittifoqi va UNICEF xalqaro bolalar

tashkiloti bilan hamkorlikda o‘tkazilgan tadbirda Asaka va Qo‘qon shaharlarining 11 ta jamoasi o‘z loyihalari bilan ishtirok etdi.

Loyihalar UNICEFning yoshlari va innovatsiyalar

Qo‘qon universiteti rahbariyati va O‘zbekiston Yoshlari ittifoqi Farg‘ona viloyat Kengashi raisi o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda yoshlarning madaniyatini boyitish, ularni rahbar sifatida shakllantirish xususida so‘z bordi.

Memorandum imzolani, universitetda Yoshlari it-

tiyoqi boshlang‘ich tashkiloti faoliyati doirasida yoshlarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi klub va to‘garaklar faoliyatini tashkil etish, hamkorlikda yoshlarga oid davlat siyosatini to‘laqoni li joriy etish, “Yoshlari press klub”da xorijiy va xalqaro ekspertlar, talabalar ishtirotida uchrashuvlar tashkil etishga kelishib olindi.



O‘SH TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI BILAN HAMKORLIK O‘RNATILDI

O‘shTU (Qirg‘iziston Respublikasi) rektori, texnika fanlari doktori, professor Janbolot Tursunbayev boshchiligidagi delegatsiya a’zolari universitetimizda talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.

60 yillik tajribaga ega, muhandislik va texnologiyalar bo‘yicha ixtisoslashgan bu ilg‘or universitet vakillari oliygohimizdaggi imkoniyatlar haqida ijobji fikrlar bildirdilar.

O‘zaro muzokaralarda

akademik faoliyat, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi, mehnat bozori talabalaridan ke lib chiqqan holda malakali mutaxassislar tayyorlash borasidagi tajribalar almashildi.

Anglashuv memorandumi imzolani, o‘qituvchi va talabalar almashish, qo‘shma dasturlar va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Departamentlararo hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.



bilan ishslash mutaxassis Hyeri Hyun xonim, Asaka va Qo‘qon shahar hokimliklari vakillari hakamligida baholab borildi.

Quvonarlisi, Qo‘qon uni-

versitetining ustozlari mentorligida tayyorgarlik bosqichlaridan o‘tgan barcha yoshlari jamoasining biznes loyihalari ijtimoiy ahamiyatli deb baholandi va boshlang‘ich moliyalashtirish imkoniyati qo‘lga kiritildi.

Muhimi, grantlarni qo‘lga kiritgan yoshlari safida universitetimizning 12 nafar talabasi ham bor.

Bosh muharrir
G‘ofurjon Zaxidov

Matn muharriri
Muxtasar Isoqova

Sahifalovchi-dizayner
Asadbek Davrboev

Fotomuxbir
Usmon Ibragimov

Farg‘ona viloyati, Qo‘qon shahri, Turkiston ko‘chasi, 25 A-uy

(+998) 73 545 55 55

@kokanduniversity